



TIL VA NUTQ. GRAMMATIKADA METOD VA NAZARIY YO'NALISHLARI.

*Andijon Davlat Chet tillari instituti Roman-German va Slavyan tillari fakulteti
nemis tili yo 'nalishi 401-guruh talabasi
Abdumalikova Gulchehra Rasuljon qizi
Ilmiy rahbar: Ismanova.O.U*

E-mail: gulchehraabdumalikova07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada til va nutq munosabati, ularning farqlari hamda grammatikani o 'qitishda qo 'llaniladigan metodik va nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Tilning tizimli tuzilmasi va nutqning real muloqotdagi ifoda shakllari o 'rtasidagi farq asosida, grammatika darslarida kommunikativ va funksional yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: til, nutq, grammatika, metod, nazariya, kommunikativ yondashuv.

Аннотация: В статье рассматриваются различия между понятием «язык» и «речь», а также теоретические и методические подходы к обучению грамматике. Особое внимание уделено системной структуре языка и реализации речи в живом общении, подчеркивается значимость коммуникативного и функционального подходов в обучении грамматике.

Ключевые слова: язык, речь, грамматика, метод, теория, коммуникативный подход.

Annotation: This article explores the relationship and distinction between language and speech, as well as theoretical and methodological approaches in grammar teaching. It emphasizes the difference between language as a system and speech as actual communication, highlighting the role of communicative and functional methods in grammar instruction.



Keywords: language, speech, grammar, method, theory, communicative approach.

Til va nutq inson tafakkurining, madaniyatining, ijtimoiy hayotining ajralmas tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Til – bu ijtimoiy hodisa bo‘lib, u kishilar o‘rtasidagi aloqa, bilim almashinushi, axborot uzatishning eng muhim vositasidir. Nutq esa – bu til vositalari orqali inson fikrini ifodalash jarayoni, ya’ni tilning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Til doimiy, barqaror tizim bo‘lsa, nutq esa bu tizimning harakatdagi shakli, uni shaxsiy, ijtimoiy, psixologik va kommunikativ jarayonlarda qo‘llash tarzidir. Shu sababli til va nutq bir-biriga bevosita bog‘liq bo‘lgan, biroq mohiyat jihatidan farqlanuvchi tushunchalardir.

Zamonaviy tilshunoslikda til va nutq masalasi, ayniqsa ularning o‘zaro bog‘liqligi, grammatik tuzilmalarda qanday ifodalanishi, tilni o‘qitishda qanday metod va nazariy yo‘nalishlar asosida yondashilishini chuqur o‘rganish dolzarb masalaga aylangan. Grammatika – tilning asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, unda so‘zlearning shakllanishi, bog‘lanishi, gap qurilishi kabi jihatlar tizimli ravishda ifodalanadi. Grammatika nafaqat nazariy bilim, balki amaliy qo‘llashda ham muhim rol o‘ynaydi. Uni o‘rganishda esa til va nutq tushunchalarining o‘zaro ta’siri, o‘ziga xos metod va yondashuvlarni talab qiladi.

O‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri — grammatika ta’limini nafaqat nazariy asosda, balki nutqiy faoliyat bilan bog‘liq holda samarali tashkil etishdir. Buning uchun o‘qitish metodlari orasida kommunikativ, funksional, kognitiv, induktiv va deduktiv yondashuvlar asosiy o‘rin egallaydi. Har bir metod o‘zining yondashuv mezonlariga ega bo‘lib, ularni tanlash va qo‘llash o‘quvchilarning yoshi, bilim darajasi, til o‘rganishdagi maqsadlariga bog‘liq holda farq qiladi. Ayniqsa, xorijiy tilni o‘qitishda grammatika o‘rgatish bilan birga, uni real muloqtdagi qo‘llanish holatlari orqali mustahkamlash zarurati tug‘iladi.



Til va nutq — bu ikki tushuncha tilshunoslikda eng muhim, markaziy va ko‘p qirrali masalalardan biridir. Ular har doim bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, lekin mazmunan va funksional jihatdan farqlanadi.

Til – bu ijtimoiy hodisa, odamlar orasidagi muloqotni ta’minlaydigan belgilar tizimi bo‘lib, unda grammatik me’yorlar, leksik birliklar, tovush tizimi, sintaktik tuzilma va boshqa lingvistik unsurlar mujassam bo‘ladi. Til kollektiv ong mahsuli sifatida jamiyatda avloddan-avlodga o‘tadigan meros hisoblanadi.

Nutq esa bu til vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladigan individual faoliyatdir. U og‘zaki va yozma shakllarda namoyon bo‘lib, har bir inson tomonidan ongli ravishda boshqariladi. Nutq shaxsiy fikrni ifodalash, o‘zaro aloqani o‘rnatish, ma’lumot yetkazish, hissiyotni ifodalash kabi ko‘plab kommunikativ vazifalarni bajaradi.

Ferdinand de Sossyurning til va nutq haqidagi klassik qarashlari tilshunoslikning asosiy nazariy poydevorini tashkil qiladi. U tilni ijtimoiy hodisa, nutqni esa individual hodisa deb ajratgan. Shu asosda “langue” (til) va “parole” (nutq) qarama-qarshi, ammo o‘zaro bog‘liq tushunchalar sifatida ko‘riladi. Til — bu umumiy qonunlar to‘plami, nutq esa shu qonunlar asosida real hayotda amalga oshadigan amaliy faoliyatdir.

Shuningdek, zamonaviy tilshunoslikda kognitiv, pragmatik va psixolingvistik yondashuvlar orqali ham til va nutq o‘rtasidagi aloqalar, farqlar, o‘zaro ta’sir mexanizmlari chuqur o‘rganilmoqda. Kognitiv lingvistika tilni tafakkur bilan chambarchas bog‘liq deb qaraydi, nutq esa bu tafakkurning tashqi ifodasidir. Pragmatik yondashuv esa til vositalarining maqsadga muvofiqligini, nutqning kontekstga bog‘liqligini tahlil qiladi. Psixolingvistika esa til va nutqning inson ongi, xotirasi, idroki bilan qanday bog‘liqligini aniqlashga harakat qiladi.

Nazariy grammatic yo‘nalishlar tilshunoslikda tilda ifodalangan mazmun va strukturalarning o‘zaro bog‘lanishini o‘rganish uchun turli yondashuvlarni



ishlab chiqadi. Bu yo‘nalishlar tilni tushunish va o‘rganish jarayonida foydalanuvchi vositalar sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy tilshunoslikda funksional, kognitiv va kommunikativ grammatikalar kabi uch asosiy nazariy yo‘nalish mavjud bo‘lib, har biri tilning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganadi.

Funksional grammatikaga ko‘ra, tilning asosiy vazifasi – fikr va hissiyotlarni samarali tarzda ifodalash va boshqalar bilan muloqot qilishdir. Shu nuqtai nazardan, tilning grammatik tuzilmalari ularning kommunikativ vazifalari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Kognitiv grammatika esa, tilning mantiqiy va psixologik aspektlariga asoslanadi. Ushbu yo‘nalish tilni inson tafakkurini aks ettiruvchi tizim sifatida o‘rganadi. Kognitiv grammatika tilni o‘rganishda inson miya va uning tajribasi bilan bog‘laydi, til esa insonning dunyoqarashi va idrokini aks ettiradi deb hisoblaydi. Bu yondashuv tilni fikrlar, tasavvurlar va ongning shakllanishi bilan bog‘laydi va tilni ifodaning kognitiv jarayonlarini o‘rganishga qaratadi. Kognitiv grammatika til o‘rganish jarayonida o‘quvchilarining tasavvurlari va tushunchalarini ham hisobga oladi, shuningdek, ularni o‘rganish uchun tilni ma’lum bir tushunchalar va obrazlar orqali tahlil qiladi.

Kommunikativ grammatika tilni muloqotda samarali foydalanish uchun kerakli vosita sifatida ko‘radi. Ushbu yondashuv tilni faqat muloqotda ishlatish uchun emas, balki uning konteksti va maqsadlarini ham inobatga oladi. Kommunikativ grammatika tilning ijtimoiy funktsiyalariga, uning individual va guruhlararo muloqotdagi o‘rni va ahamiyatiga e’tibor beradi. Bu yo‘nalish tilni faqat grammatik qoidalar nuqtai nazaridan emas, balki ijtimoiy va madaniy nuqtai nazardan o‘rganishni maqsad qiladi. Kommunikativ grammatika tilni real hayotdagi muloqot sharoitlariga moslashish va tilni samarali ishlatish imkoniyatlarini yaratishni ko‘zda tutadi.

Grammatika tilning ichki tuzilishini tashkil qiluvchi, fonetik, leksik va sintaktik birliklar o‘rtasidagi munosabatlarni izohlovchi muhim sohadir.



Grammatika o‘qitishda nazariy yondashuvlar tilshunoslikda tarixan shakllangan turli paradigmalarga asoslanadi. Ushbu yondashuvlar grammatik hodisalarini qanday talqin qilish, qanday tartibda o‘rgatish va o‘quvchilar tomonidan qanday qabul qilinishiga ta’sir etadi.

Nazariy yondashuvlar orasida eng qadimiylaridan biri — formalistik yondashuv bo‘lib, u grammatikani qat’iy qoidalarga asoslangan tizim sifatida ko‘radi. Bu yondashuvda tilshunoslар til birliklarini shakl jihatidan o‘rganadilar va ushbu shakllarning tahlilini taqdim etadilar. Masalan, fe’llarning vaqt, mayl, nisbat, shaxs, son shakllari yoki otlarning kelishik, son, egalik shakllari ketma-ketlik asosida tahlil qilinadi. Bu usulda grammatik strukturani mexanik ravishda o‘zlashtirishga urg‘u beriladi, lekin semantik jihatlar chetda qoladi.

Keyinchalik funksional yondashuv vujudga keldi. Bu yo‘nalish til birliklarining matndagi, nutqdagi vazifasiga e’tibor beradi. Shunday qilib, grammatika nafaqat shakllar yig‘indisi, balki ma’no yaratish vositasi sifatida ham o‘rganiladi. O‘qitishda bu yondashuv har bir grammatik birlikni kommunikativ kontekstda qo‘llashga urg‘u beradi. Masalan, “boradi” fe’lini nafaqat fe’lning uchinchi shaxsdagi hozirgi zamon shakli deb, balki bu fe’lning ma’lumot berish, niyat ifodalash, buyruq shaklida ishlatalishini ham o‘rgatadi.

Kognitiv yondashuv esa zamonaviy psixolingvistika bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, grammatik birliklarning inson tafakkuridagi modellashtirilishiga asoslanadi. Ushbu yondashuv til o‘rganishni jarayon sifatida talqin qiladi va grammatikani o‘rganishda o‘quvchining bilish jarayonlariga e’tibor qaratadi. O‘quvchi grammatikani faol tarzda kashf etadi, o‘z tafakkuri asosida grammatik qoidalarni quradi, bu esa chuqur tushunish va mustahkam eslab qolishga xizmat qiladi.

Grammatikani o‘qitishda yondashuvlar turlicha bo‘lishi mumkin, ammolarning har biri muayyan o‘quv vazifalari va metodik maqsadlarga xizmat qiladi. Amaliyotda ko‘p hollarda ushbu nazariy yondashuvlar bir-birini to‘ldiradi,



kombinatsiyalashgan uslubiy yondashuvlar qo'llaniladi. O'quv dasturlarini ishlab chiqishda va dars rejalarini tuzishda aynan ushbu nazariy asoslar tayanch bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek va xorijiy til grammatikasini solishtirishga oid yondashuvlar

Til o'rgatish metodikasida qiyosiy yondashuv muhim o'rinni egallaydi. Bu yondashuv o'rgatilayotgan til (masalan, nemis tili) bilan ona til (masalan, o'zbek tili) grammatik tizimlarini solishtirish orqali til hodisalarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Ayniqsa, grammatikani o'qitishda bu yondashuv juda samaralidir, chunki u o'quvchiga til hodisalarining farqli va o'xshash jihatlarini tahlil qilish, ularni ongli ravishda idrok etish imkonini beradi.

Masalan, o'zbek tilidagi egalik affikslarini olaylik: "kitobim", "uyimiz", "o'g'lingiz" kabi shakllar egalikni ko'rsatadi. Germaniya yoki ingliz tilida esa bu ma'no artikl va pronomlar orqali ifodalanadi: my book, our house, your son. Demak, grammatik mazmun ifodalanish usuli har xil, bu esa o'quvchida grammatik tafakkurni shakllantiradi.

Grammatik kompetensiya – bu o'quvchining grammatik qoidalarni nafaqat bilishi, balki ularni to'g'ri va mazmunli nutqda qo'llay olish qobiliyatidir. Til o'rgatishda ushbu kompetensiyani rivojlantirish uchun zamonaviy metodikalar integrativ yondashuvga asoslanadi. Integrativ yondashuv – bu grammatikani boshqa til komponentlari bilan birgalikda (fonetika, leksika, nutq amaliyoti, yozma va og'zaki nutq) uyg'unlashtirib o'rganishdir.

An'anaviy o'qitishda grammatikani alohida, mustaqil darslarda o'rgatishga e'tibor qaratilgan. Ammo integrativ yondashuvda grammatika boshqa tillar komponentlari bilan birga, kompleks tarzda o'zlashtiriladi. Bu yondashuv kommunikativ til o'rgatish tamoyillari asosida shakllangan bo'lib, o'quvchining faqat bilim emas, balki ko'nikma va malakasini ham rivojlantirishga qaratilgan.

Masalan, zamonlar mavzusini o'rganishda nafaqat qoidalalar yodlatiladi, balki shu mavzuga mos muloqot matnlari, rolli o'yinlar, suhbatlar, yozma topshiriqlar



orqali ularning amaliy qo'llanilishi ta'minlanadi. O'quvchi qoidani yodlash bilan birga, uni real vaziyatda qo'llashni o'rganadi. Shu tariqa grammatik kompetensiya shakllanadi.

Til va nutq masalasi tilshunoslikda eng dolzarb va ko‘p qirrali tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada tildagi grammatik va nazariy yondashuvlar, til va nutqning farqli xususiyatlari, shuningdek, ularning o‘zaro aloqasi chuqur tahlil qilindi. Tiling ijtimoiy tizim sifatida mavjudligi, uning tarkibiy qismlari va qoidalari, jamiyat a’zolari tomonidan tan olinishi va boshqarilishi bu tizimni universal va nisbatan barqaror vosita sifatida namoyon etadi. Nutq esa bu tizimdan foydalanish, uni konkret muloqot jarayonida individual tarzda qo'llash demakdir. Shu sababli, til va nutq bir-birini to‘ldiruvchi, ammo o‘zaro farqli hodisalardir.

Grammatikada esa bu ikki tushunchaning tahlili yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Grammatik tizimlar – strukturalizm, generativ grammatika, funksional, kognitiv va kommunikativ yondashuvlar – tildagi birliklar va ularning vazifalarini turli nuqtai nazarlardan o‘rganadi. Har bir yo‘nalish tilni o‘rganishda o‘ziga xos metodikani taklif qiladi: biri tilni qat’iy tizim deb bilsa, boshqasi uni inson tafakkuri va tajribasi asosida shakllangan murakkab ijtimoiy-hissiy fenomen sifatida tushuntiradi. Aynan shu yondashuvlar orqali tilshunoslikda yangi nazariy qarashlar, amaliy tavsiyalar va ta’limiy usullar shakllanmoqda.

Shuningdek, til va nutqning farqlarini chuqur o‘rganish orqali til o‘qitish metodikasida sifatli yondashuvlarni ishlab chiqish, til o‘rganuvchilarda til tizimini to‘g‘ri anglash va uni amaliyotda samarali qo'llash ko‘nikmasini shakllantirish mumkin. Bu boradagi tadqiqotlar grammatikani o‘rgatish metodikasini takomillashtirishda, yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda muhim nazarliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, til va nutqni o‘zaro aloqador va lekin mustaqil hodisalar sifatida chuqur tahlil qilish, grammatikada zamonaviy nazarliy yo‘nalishlar va



metodlarni qo'llab, tilni o'rgatish jarayonini samarali tashkil etish zamonaviy tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa nafaqat lingvistik tadqiqotlar, balki tilni o'qitish, tarjima, muloqot va boshqa amaliy sohalarda ham beqiyos ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

Urunbayevna, I. O. (2024). ILM-FANDA TERMINLAR OLAMI. XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI , 1 (1), 187-189.

1. Burxonovich, A. O. (2024). ZOOFRAZEMALARINI TADQIQ QILISHDA DA TISHKINA TAHLIL METODI (RUS VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA). PEDAGOG, 7(9), 131-134.
2. Azamov, O. (2023). ZOOFRAZEMALARINI NEMIS TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH TAMOYILLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(23), 100-106.

Urunbayevna, I. O. (2025, March). TA'LIM JARAYONLARIDA TADQIQOT VA INNOVATSIYALARINI INTEGRATSIIYA QILISHNI MATEMATIKA VA TERMINOLOGIYAGA CHAMBARCHAS BOGLIQLIGI. In Uz Conferences (Vol. 1, No. 2).

Dadajonova, S., & Bozorova, G. (2025). CORRECT PRONUNCIATION FORMATION IN FOREIGN LANGUAGE LESSONS (USING GERMAN AS AN EXAMPLE). International Journal of Artificial Intelligence, 1(1), 250-253.



Muxtarovna, Q. N. (2025, March). NEMIS VA O ‘ZBEK TILLARI MISOLIDA KOMPLIMENTNING TILSHUNOSLIK VA MADANIYATSHUNOSLIKDAGI O ‘RNI. In Uz Conferences (Vol. 1, No. 2).

ҚОДИРОВА, Н. М. ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ В УЗБЕКИСТАНЕ. ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ В УЗБЕКИСТАНЕ Учредители: Министерство высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан, (2), 85-99.

Akbaralievna, N.G. (2024). TARJIMADAGI TIL VA MADANIYAT MUVOFIQLIKLARI. PEDAGOG , 7 (9), 135-137.